

**“O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan  
2025-yilda xorijiy investitsiyalar va kreditlar ishtirokida  
amalga oshirilishi rejalashtirilgan investitsiya loyihalari bo‘yicha  
MA’LUMOT**

Bugungi kunda “O‘zbekiston milliy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-yanvardagi 53-sonli qaroriga asosan xorijiy investitsiya va kreditlar ishtirokida magistral elektr tarmoqlarini va podstansiyalarini rivojlantirish hamda modernizatsiya va rekonstruksiya qilishga qaratilgan umumiyligi qiymati **1 650,5 mln dorllar** bo‘lgan **8 ta** (*shundan, 7 tasi davlat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan va 1 tasi boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan*) investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda.

Ushbu loyihalar doirasida **1 006 km** 220–500 kV kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari quriladi hamda podstansiyalarda **3 128 MVA** qo‘sishimcha quvvat yaratiladi. Shuningdek, **SCADA** va **ERP** tizimlari joriy etiladi.

**2025-yil** investitsiya dasturi doirasida **461,3 mln dollar** xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirish rejalashtirilgan (*2024 yil o‘zlashtirishga nisbatan 125 foiz*). Jumladan:

Davlat kafolati ostidagi chet el mablag‘lari – **251,3 mln dollar**.

Boshqa xorijiy investitsiya mablag‘lari – **210,0 mln dollar**.

Xususan, **2025-yil yanvar-may** oylarida **97,7 mln dollar** xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirish rejalashtirilgan bo‘lib, amalda **100,2 mln dollar** (*rejaga nisbatan 102,5 foiz*) o‘zlashtirildi. Bunda, **26,6 mln dollar** davlat kafolati ostidagi chet el mablag‘lari (*rejaga nisbatan 104,0 foiz*) hamda **73,6 mln dollar** boshqa xorijiy investitsiya mablag‘lari (*rejaga nisbatan 102,0 foiz*).

Shuningdek, **2025-yil 1-yarim yillik yakuni bo‘yicha 225,0 mln dollar** xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirish rejalashtirilgan bo‘lib, bunda **70,7 mln dollar** davlat kafolati ostidagi chet el mablag‘lari hamda **154,3 mln dollar** boshqa xorijiy investitsiya mablag‘lari.

**2025-yilda** xorijiy investitsiyalar hisobidan umumiyligi qiymati **200,2 mln dollar** bo‘lgan **2 ta** investitsiya loyihasi ishga tushirilishi rejalashtirilgan va buning natijasida **213 km** uzunlikda 220 kV kuchlanishli va **209,0 km** uzunlikda 500 kV kuchlanishli elektr uzatish tarmog‘i hamda **1 602 MVA** quvvatga ega **1 ta** 500 kV kuchlanishli podstansiya ishga tushiriladi. Jumladan:

- “*Uzunligi 127 km bo‘lgan 500 kVli “Sarimoy” (Xorazm viloyati) – “Jonkeldi” (Buxoro viloyati) yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmog‘ini qurish*” loyihasi doirasida **137 km** uzunlikdagi 500 kV kuchlanishli elektr uzatish tarmog‘i quriladi.

- “*Yangi 500 kV kuchlanishli “Halqa” podstansiyasi va 220, 500 kV kuchlanishli havo elektr uzatish tarmoqlarini qurish*” loyihasi doirasida **213 km** uzunlikdagi 220 kVli va **72 km** uzunlikdagi 500 kVli elektr uzatish tarmog‘i hamda **1602 MVA** quvvatga egi 500 kVli podstansiya quriladi.

Shuningdek, 2025-yil investitsiya dasturiga umumiyligi qiymati **449,7 mln dollar** bo‘lgan **6 ta** istiqbolli loyiha kiritilgan.

**Xalqaro aloqalar va investitsiyalarni jalb qilish boshqarmasi**